

TALONCHILIK JINOYATINI TERGOV QILISHDA KECHIKTIRIB BO'LMAS TERGOV HARAKATLARINING AHAMIYATI

Suyunov Shahzodbek Shovkatovich

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Tergov faoliyati"
kafedrasi o'qituvchisi**

Ilhomova Zebo Bahrom qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi 325-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15687039>

Annotatsiya

Ushbu maqola talonchilik jinoyatining mohiyati, tushunchasi va tavsifini huquqiy nuqtai nazardan tahlilini, talonchilikning boshqa jinoyatlardan ajralib turuvchi xususiyatlarini, uning ochiqdan-ochiq amalga oshirilishini, jabrlanuvchining xayoti yoki sog'lig'i uchun bevosta xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish yoki shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishga asoslangan usulini, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikni, huddi shuningdek ushbu jinoyatni tergov qilishda tergovga qadar tekshiruv davrida kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlarining ahamiyatini, mazkur jinoyatlarni fosh etishning kriminalistik va amaliy tahlillarini yoritib o'tgan. Talonchilik jinoyatining jamiyatda xavfsizlik va mulk daxlsizligiga salbiy ta'siri xususida xulosa qilingan.

Kalit so'zlar

Talonchilik, talon-taroj qilish, zo'rlik, zo'rlik ishlatish, mol-mulk, ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish, issiq izida fosh etish, mulk daxlsizligi.

Talonchilik jinoyati deganda, o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish tushuniladi. Bunda aybdor, jabrlanuvchi va boshqalarning ko'z oldida o'zganing mol-mulkini egallab olayotganligini va ular uning harakatlarining jinoiy xususiyatini tushunganligini anglaganda, o'zganing mulkini oshkora talon-taroj qilish talonchilik hisoblanadi. Talonchilik jinoyati deganda jabrlanuvchiga nisbatan hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoki ishlatmasdan mulkni ochiqchasiga talash tushiniladi. Talon-taroj qilish deganda, o'zganing mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib qonunga xilof tarzda va haq to'lamay olib qo'yishdir. Talon-taroj qilishning obyekti o'zgalar mulkidir¹.

Talonchilik uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 166moddasida javobgarlik masalasi berilgan. Bunda talonchilikning kvalifikatsiya tarkibi sog'liq va hayot uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish, yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish kabi o'ziga xos belgini o'z ichiga oladi².

Xuddi jismoniy zo'rlik kabi, jismoniy zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali ruhiy zo'rlik ham talonchilikning kvalifikatsiya belgisi hisoblanadi. talonchilikda zo'rlik mulkdorga, shuningdek, real holda yoki aybdorning fikricha, talon-tarojga to'sqinlik qiluvchi boshqa

¹ Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.

² Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // "Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари" мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.

shaxslarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Insonga nisbatan zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish talonchilik turining mohiyatini o'zgartiradi³.

Talonchilik jinoyatini tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar mavjud bo'lib ular quyidagilardan iboratdir.

- Talonchilik jinoyati qachon, qayerda, qanday sharoitda va kimga nisbatan sodir etilganligi;

- Talonchilikni kim sodir etgani (yoshi, hujum qilgan kishining kasbi, ilgari u jinoiy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligi, agar tortilgan bo'lsa jazoni qayerda o'tagan, tanishlari doirasi, jinoiy aloqalari va hokazo);

- Agar jinoyat guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, guruh tarkibidagi har bir ishtirokchining jinoyatni sodir etilishidagi o'rni (roli);

- Jinoyat sodir etish usuli;

- Jinoyatni yashirish harakatlari;

- Jabrlanuvchiga nisbatan qo'llanilgan zo'rlikning xarakteri;

- Agar jinoyatni sodir etish vaqtida o'qotar yoki sovuq qurol ishlatilgan bo'lsa, bu qurol kimga tegishli va kimdan sotib olinganligini yoki olib qo'yilganligini;

- Jabrlanuvchining shaxsi, unga yetkazilgan jismoniy va moddiy zarar miqdori;

- Aynan nima olib ketilgan va bu narsa ilgari kimga tegishli bo'lgan;

- Talonchilik jinoyatini sodir etishga imkon tug'dirgan shart- sharoitlar nimalardan iboratligini;

- Yetkazilgan tan jarohatining tavsifi (agar u mavjud bo'lsa) va og'irlik darajasi;

- Jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohatlari to'g'risidagi ko'rsatuvlarning guvoh bergan ma'lumotlar bilan taqqoslab ko'rish va uning tasdiqlanishi;

- Talonchilik jinoyatining sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlar;

- Jabrlanuvchida kata pul summasi borligini bilgan shaxslarning doirasini aniqlash va boshqalardan iborat⁴.

Talonchilik jinoyati izlarini zudlik bilan aniqlash, qayd etish va to'plash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni topish va ushlab hamda ishning barcha holatlarini har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilishini ta'minlashda tergov-tezkor guruhining hodisa joyiga o'z vaqtida va to'liq tarkibda chiqishi alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda bir necha xil tergov-tezkor guruhlar faoliyat olib boradi. Ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari qoshidagi navbatchi tergov-tezkor guruhi jinoyat haqidagi xabarlarini zudlik bilan tekshirish uchun hodisa sodir bo'lgan joyga chiqib, jinoyatlarni "issiq izidan" fosh etishda kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilishini ta'minlash maqsadida tergovchi, tezkor xodim, profilaktika inspektori, ekspert-kriminalist hamda kinologdan tashkil topadi⁵.

³ Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. "Талқин ва тадқиқотлар" Республика илмий-услубий журнали 10сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

⁴ Ш.Ш.Суюнов. Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. "Замонавий дунёда педагогика ва психология" номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил

⁵ Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фоз қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини

Navbatchi tergov-tezkor guruhi tarkibi (soni)ni, ularning ish va dam olish vaqtini IIB boshliqlari idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlar talabi asosida, yuzaga kelgan tezkor vaziyatdan kelib chiqib belgilaydi. IIB rahbariyatidan ma'sul rahbarlar sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar hamda rahbariyat ko'rsatmasi bo'yicha boshqa jinoyatlar bo'yicha sutka davomida shaxsan hodisa joyiga chiqishlari talab etiladi. Maqsadli (vaqtinchalik) tergov-tezkor guruhi aniq jinoyat ishini tergov qilish va fosh etish uchun tuziladi. Ixtisoslashgan (doimiy harakatdagi) tezkor-tegov guruhi ma'lum bir turdagi (shaxsning hayoti va sog'li'iga qarshi, iqtisodiy) jinoyatlar sodir etilib ochilmagan, jinoyatni sodir etgan shaxs noma'lum bo'lganda ushbu jinoyatlarni tergov qilish va fosh etish uchun tuziladi. Tergov-tezkor guruhini tashkil qilish va uning faoliyat ko'rsatishi haqidagi qaror boshqaruvning turli darajalaridagi ichki ishlar organlari rahbarlarining buyruqlari bilan rasmiylashtiriladi⁶.

Tergov-tezkor guruhiga tergovchi rahbarlik qiladi. Tergov-tezkor guruhi tarkibiga kiritilgan xodimlarning samarali hamkorligini tashkil qilishga IIO boshliqlari va ularning tezkor ishlar va tergov bo'yicha o'rinbosarlari, tergov, EKB boshliqlari ma'sul hisoblanadi. Tergov-tezkor guruhi tarkibi va soni sodir etilgan jinoyatning o'ziga xos tomonlari, aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar hamda tezkor-qidiruv, ilmiy-texnikaviy va tashkiliy faoliyatning hajmi, xususiyati va murakkabligiga bog'liq bo'ladi. Agar jinoyatni sodir etishda jinoyatchilar avtotransport vositalaridan foydalanganliklari ma'lum bo'lsa, dastlabki ma'lumotlar asosida tergov-tezkor guruhi tarkibiga YHX xodimlari ham jalb etilishi mumkin. Tergov-tezkor guruhiga yangi a'zolarini qabul qilish va tarkibidagi a'zolari almashtirish faqatgina jinoyat ishini yuritayotgan tergov-tezkor guruhi rahbarining qarori asosida amalga oshirilishi lozim⁷.

Tergov-tezkor guruhi a'zolarining samarali faoliyat olib borishida tergovchining tashkiliy boshqaruv xususiyatiga ega eng maqbul qarorlar ishlab chiqishi va qabul qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tergov-tezkor guruhi rahbari tergovning yo'nalishi va borishini belgilaydi, uni rejalashtiradi, guruh ishtirokchilari o'rtasida ishni taqsimlaydi va ularning harakatlarini muvofiqlashtiradi, axborot almashuvini tashkil qiladi, ishga aloqador tezkor ma'lumotlar bilan tanishadi, guruhning manfaatdor a'zolari bilan ularni legallashtirish va ishlatish imkoniyatlarini muhokama qiladi, topshiriq, ko'rsatma va farmoyishlarning ijrosini nazorat qiladi. Albatta, tergovchi tezkor xodim hamda boshqa mutaxassislardan muayyan g'oya va takliflar oladi, ularning fikrlarini tinglaydi, tegishli qarorlar ishlab chiqishda ularni inobatga oladi⁸.

Jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda aksariyat hollarda yetarli vaqt, zarur axborot va uni tezda olish imkonining yo'qligi, vaziyatning noaniqligi, ko'p hollarda ekstremalligi tergov-tezkor guruhi rahbarining qaror qabul qilishda faqat o'z individual hislatlariga tayanishining

такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг иxtisoslashtirilgan филиали, Т: 2022. Б.78-83.

⁶ Н.Қ.Усманиев. «Оқилонга муддат» таъминчилини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.

⁷ А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дastlabки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

⁸ Ш.С.Агоев., Шакирова С. Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

asosiy sabablaridir. Shu bois, guruh faoliyati samaradorligida tergovchining shaxsi kata ro'l o'ynaydi. Tergov-tezkor guruhining samarali faoliyat ko'rsatishi ko'p jihatdan mazkur guruh o'z faoliyatini aniq rejalar asosida amalga oshirishiga ham bog'liq. Rejalashtirish deganda, tergov-tezkor guruhi a'zolarining kelgusida birgalikdagi faoliyati uchun maqsad va vazifalarni, ularga erishish usul va vositalarini, ularni hal qilish ketma-ketligi va bajarish muddatlarini belgilash borasidagi fikriy faoliyatini tushunish lozim. Reja bandlari tuzilayotganda guruh a'zolari tomonidan bajariladigan ish hajmi, muddati va ijro etish mexanizmi, xizmat vazifalarining o'zoga xosligi hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. O'tkazilishi jinoyatga aloqador shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi mumkin bo'lgan tergov va tezkor qidiruv harakatlarini rejalashtirayotganda tergovchi va tezkor xodim bunday harakatlarni tayyorlash va o'tkazish bilan bir vaqtda, mazkur shaxslarning ushbu harakatlarga javob choralaridan imkon qadar ko'proq foydalanish imkoniyatlarini o'ylab ko'rishlari kerak. Bunda tergov sirini saqlab qolish, tezkor ma'lumotlarning chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik muhim, chunki tergovga qarshilik ko'rsatayotgan shaxslar bundan manfaatdor bo'lishlari mumkin⁹.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 25.01.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // [Электрон манба].
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Т., 2009. – Б. 199.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.4. –Т., 2002. – Б. 47.
5. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.
6. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎЗР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.
7. Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015й.Б. 34-40.
8. Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24
9. Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг

⁹ Н.Қ.Усмналиев. Жиноят ишини юретишни тўхтатиш ва тиклаш мuddатлари билан боғлиқ айрим мулоҳазалар //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 40-47.

муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10-сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

10. Ш.Ш.Суюнов. Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил

11. Ш.Ш.Суюнов. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси.

12. Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

13. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда жиноят ишини тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.

14. А.Т.Аширбоев. Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперткриминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.

15. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

16. А.Т.Аширбоев. Суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш институти: халқаро тажриба ва ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 37-42.

17. Н.Қ.Усмналиев. “Оқилона муддат” тамойилини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.

18. Н.Қ.Усмналиев. Жиноят ишини юритишни тўхтатиш ва тиклаш муддатлари билан боғлиқ айрим мулоҳазалар //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 40-47.

19. Н.Қ.Усмналиев. Протсессуал муддатларнинг ҳисоблашда қўлланилувчи меъзонларнинг айрим жиҳатлари //проблемс анд солутионс оф ссиентифис анд инновативе ресеарч. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 25-30.

20. Н.Қ.Усмналиев. Байназов Ж. Ўғирлик жинояти бўйича ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг янги усуллари //Наука и инновации в системе образования. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 69-74.

21. Ш.С.Агоев., Шакирова С. Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

22. Ш.С.Агоев., Абдухамидов А. Гувоҳлантириш тергов ҳаракатини ўтказишнинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 49-51.

23. Ш.С.Агоев., Асатуллаев Д. Ахборот технологиялари соҳасидаги ўғирлик жиноятларни тергов қилишнинг ўзига хос хусусиятлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 31-35.
24. Ш.С.Агоев., Ташев У. Экспертиза фаолиятининг арманистон республикаси жиноят-протсессуал қонунчилигидаги ҳуқуқий асослари //Развитие и инновации в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 48-56.
25. Хушвактова Н.А. Факторы, препятствующие эффективному использо-ванию общественного участия в досудебном производстве / Н.А. Хушвактова // Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения: сб. ст. по материалам LXV Международной научно-практической конференции «Теорети-ческие аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения». – № 11(65). – Москва, Изд. «Интернаука», 2022. DOI:10.32743/25419889.2022.11.65.346588
26. Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фош қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.